

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

**5-2025
IJTIMOIY
FANLAR**

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

IQTISODIYOT

H.V.Ivонина, Ф.Ч.Бойко

Сравнительный анализ моделей организационного туризма в Европе, СНГ и Азии: институциональные уроки для Узбекистана 5

Е.В.Голышева, Ш.Г.Хошимов

«Зигзагообразное» планирование туристских маршрутов как инструмент пространственного развития и устойчивости туризма (на примере Ферганской области) 13

FALSAFA

S.A.Muradov

Hind o'lkasida tasavvuf ta'limotining rivojlanish tendensiyasi 22

L.S.Yuldasheva

Abu Ali ibn Sinoning "Urjuza" she'riy dostonining falsafiy tahlili 26

M.T.Xidirov

Postnoklassik ilmiy tafakkur shakllanishida bilim va faoliyat dialektikasining o'rni 30

D.I.Saydullayeva

Axloqiy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi 35

F.A.Yuldashev

Raqamli jamiyat sharoitida shaxs ehtiyoj-manfaatlari va ekzistensial jarayonlar: ijtimoiy-falsafiy tahlil 38

R.Orziboyev

Yoshlar g'oyaviy birdamlik fazilatlarini yuksaltirish integratsiyasida musiqiy merosning o'rni 43

C.Вусала

Изучение искусственного интеллекта через призму философского пространства и времени 47

Y.A.Xudoyqulov

Zamonaviy jamiyatda harbiy fanni yuksaltirishga doir ilmiy-amaliy tadqiqotlar metodologiyasi 51

R.S.Raupova, N.Rajabova

Imom ash-Shotibiyning qiroat ilmidagi xizmatlari va uning ilmiy merosi 55

E.I.Tursunaliyeva

Ijtimoiy davlat fenomeni: nazariy yondashuvlar va xalqaro tajriba 58

G.A.Raximova

Milliy madaniyatni rivojlantirish va saqlab qolishning ijtimoiy omillari 62

M.Z.Jumayeva

Globalashuv sharoitida yangi O'zbekiston: ulkan maqsadlar va zamonaviy jamiyat taraqqiyotining muhim xususiyatlari 67

A.A.Qambarov

Is'hoqxon to'ra ibrat ilmiy merosining falsafiy tahlili 72

B.S.Ganiyev, I.B.Xolmatov

Jamiyatimiz yangi taraqqiyot bosqichida sportni – ijtimoiy fenomen sifatida qaror topishining ijtimoiy-falsafiy xususiyatlari 77

L.E.Tursunova

Tilab Mahmudovning milliy estetik merosga qo'shgan hissasi 83

A.A.Mo'ydinov

Ma'naviy amaliyot kategoriyasining ijtimoiy-falsafiy talqini 87

M.K.Soipova

Fazl ibn Ahmad qarashlarida axloqiy masalalarning falsafiy tahlili 93

M.K.Soipova

Yangi O'zbekistonda yoshlarni komillikka erishishida Fazl ibn Ahmad merosining o'rni 96

G.A.Qamariddinova

"Rashahotu aynil-hayot" asarida insonparvarlik va ma'rifatli jamiyat konsepsiyasi 100



UO'K: 165:168:001.1

**POSTNOKLASSIK ILMIY TAFAKKUR SHAKLLANISHIDA BILIM VA FAOLIYAT
DIALEKTIKASINING O'RN****РОЛЬ ДИАЛЕКТИКИ ЗНАНИЯ И ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В ФОРМИРОВАНИИ
ПОСТНЕКЛАССИЧЕСКОГО НАУЧНОГО МЫШЛЕНИЯ****THE ROLE OF THE DIALECTICS OF KNOWLEDGE AND ACTIVITY IN THE FORMATION OF
POST-NONCLASSICAL SCIENTIFIC THINKING**

Xidirov Mustafo Toyirqulovich 
O'zbekiston Milliy universiteti doktranti

Annotatsiya

Ushbu maqolada postnoklassik ilmiy tafakkurning shakllanish jarayonida bilim va faoliyat dialektikasining zaruriyati metodologik asoslar bilan tahlil qilinadi. Bunda zamonaviy fanning ko'p qirrali va murakkab xususiyatlari, subyekt-obyekt o'rtasidagi interaktiv munosabatlar, gnoseologik va ontologik yondashuvlar integratsiyasi asosida ilmiy bilish va amaliy faoliyatning uyg'unlashuvi yoritiladi. Shuningdek, bilimni faoliyatga tatbiq qilish orqali nazariy va amaliy natijalarning muvofiqligiga erishish hamda inson tafakkurining yangi bosqichga o'tishidagi metodologik asoslar tahlil qilinadi.

Аннотация

В данной статье анализируется необходимость диалектики знания и деятельности в процессе формирования постнеклассического научного мышления с методологических позиций. Освещается взаимосвязь научного познания и практической деятельности на основе интеграции гносеологических и онтологических подходов, а также с учетом многоаспектности и сложности современной науки и интерактивных отношений между субъектом и объектом. Также рассматриваются методологические основания достижения согласованности между теоретическими и практическими результатами через применение знания в деятельности, а также перехода человеческого мышления на новый уровень.

Abstract

This article analyzes the necessity of the dialectics of knowledge and activity in the formation of post-nonclassical scientific thinking, based on methodological foundations. It highlights the integration of scientific cognition and practical activity through the synthesis of epistemological and ontological approaches, considering the complexity and multidimensional nature of modern science and the interactive relationship between subject and object. The article also examines the methodological foundations for aligning theoretical and practical outcomes through the application of knowledge to activity, as well as for transitioning human thinking to a new stage.

Kalit so'zlar: postnoklassik tafakkur, fan, bilim, ilmiy bilish, faoliyat, dialektika, gnoseologiya, ontologiya, subyekt-obyekt munosabati, metodologiya, zamonaviy fan.

Ключевые слова: Постнеклассическое мышление, наука, знание, научное познание, деятельность, диалектика, гносеология, онтология, отношение субъект-объект, методология, современная наука.

Key words: Post-nonclassical thinking, science, knowledge, scientific cognition, activity, dialectics, epistemology, ontology, subject-object relationship, methodology, modern science.

KIRISH

Bugungi kunda fan va tafakkur rivoji ko'plab sifat o'zgarishlariga sabab bo'lmoqda. Ayniqsa, XX asrning ikkinchi yarmi va XXI asr boshlarida ilmiy bilish jarayoniga nisbatan yondashuvlarda yangi davr – postnoklassik tafakkur bosqichi shakllandi. Bu bosqich o'zida nafaqat obyektiv haqiqatni anglashga, balki inson, uning faoliyati va qadriyatlari bilan bog'liq keng ko'lamli jarayonlarni hisobga olishga qaratilgan yondashuvlarni mujassamlashtirdi. Postnoklassik tafakkurda bilim manbai sifatida inson subyektivligi, tarixiy jarayon va davr ruhi, madaniy muhit va axloqiy tamoyillar o'z o'rniga ega bo'lib bormoqda. Bunday sharoitda bilim va faoliyat o'rtasidagi dialektik munosabat nafaqat falsafiy masala, balki ilmiy-metodologik muammo sifatida ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Postnoklassik fan paradigmalarida bilish va faoliyat dialektikasi zamonaviy falsafa, ilm-fan va texnologiyalar rivojlanishining asosiy tamoyillaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Ushbu yo'nalish insoniyatning murakkab tizimlar va noaniqliklar sharoitidagi bilish jarayonlarini

FALSAFA

chuqurroq anglashga intilishining mahsulidir. Postnoklassik yondashuvlar ilmiy bilimlarni jamiyat va tabiat faoliyati bilan dialektik bog'liqlikda o'rganishga qaratilgan bo'lib, bu jarayonlar o'zaro aloqadorlikni ko'rsatadi. Inson faoliyati va bilish jarayoni insoniyat taraqqiyotining ajralmas qismi bo'lib, ularning uzviy aloqasi ijtimoiy, falsafiy va ilmiy izlanishlarning markazida turadi. Faoliyat insonning borliqqa bo'lgan munosabati, uning o'z imkoniyatlarini amalga oshirish vositasi va jamiyatdagi o'z o'rnini anglash jarayoni sifatida namoyon bo'ladi. Bilim esa faoliyatning nazariy va amaliy asosini tashkil etadi, uni yo'naltiradi va samaradorligini oshiradi. Ushbu jarayonlar o'zaro dialektik bog'liq bo'lib, ularning ontologik, gnoseologik va metodologik jihatlarini tahlil qilish zamonaviy falsafaning dolzarb vazifalaridan biridir.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Postnoklassik ilmiy tafakkur shakllanishida ilmiy bilimning tabiatiga va uning faoliyat bilan o'zaro aloqasiga oid qarashlar olimlar tomonidan chuqur tahlil qilingan. Ushbu yo'nalishda ko'plab olimlarning asarlari ilmiy epistemologiyaning rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Grinbaum va Paty postnoklassik tafakkurga xos bo'lgan holat – ya'ni nazariy tushunchalarning faqat empirik asoslar bilan emas, balki konseptual va madaniy kontekst bilan ham uyg'unlashganligini ta'kidlaydi. Tomas Kun esa paradigmalarning o'zgarishi g'oyasi ilmiy inqiloblar jarayonida ilmiy bilimning tarixiy, madaniy va ijtimoiy omillarga bog'liqligini ochib bergan. S.A.Lebedev ilmiy haqiqatlarning konsensual tabiatini tahlil qilar ekan, ilmiy bilim subyektivlik va ijtimoiylik elementlarini o'zida mujassam etganligini qayd etgan N.A.Shermuhamedova "Falsafa va fan metodologiyasi" nomli darsligida esa falsafa va fan metodologiyasining o'zaro munosabati, ayniqsa ilmiy bilish faoliyati bilan bog'liqligini o'ziga xos yondashuv asosida ochib bergan. Bu yondashuvlar postnoklassik tafakkurning shakllanishida faoliyat aspektini birlamchi omil sifatida ko'rib chiqish imkonini beradi. Latour esa, ilmiy bilimning ijtimoiy va madaniy komponentlarini chuqur tahlil qilib, bilimni ijtimoiy faoliyat mahsuli sifatida tahlil qilgan.

Yuqoridagi adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, postnoklassik ilmiy tafakkurda bilim va faoliyat o'rtasidagi dialektika markaziy o'rin egallaydi. Ilmiy bilim endilikda faqat obyektiv haqiqat emas, balki ijtimoiy, madaniy va faoliyatga oid omillar bilan bog'liq murakkab tizim sifatida talqin etiladi. Shu boisdan, ilm-fanni tushunishda dialektik yondashuv va faoliyat konsepsiyasi fundamental ahamiyat kasb etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasi postnoklassik ilmiy tafakkur shakllanishida bilim va faoliyat dialektikasini tahlil qilish, bu jarayonlarning falsafiy, gnoseologik va amaliy jihatlarini o'rganishdan iborat. Tadqiqot metodlari sifatida dialektik metod asosida bilim va faoliyatni tahlil qilishda, tarixiylik metodidan postnoklassik fan davrida bilim va faoliyat dialektikasining ahamiyatini baholanishida, tizimli yondashuv orqali yangi bilimlar va faoliyat o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik tizimli ravishda tahlil qilingan.

TAHLILLAR VA NATIJALAR

Postnoklassik fan uchun xos bo'lgan xususiyat – bilish subyektining fan jarayonidagi markaziy rolini tan olish, subyekt va obyekt o'rtasidagi chegaralarni nisbiylashtirish va fanning ijtimoiy, ma'naviy, amaliy jihatlarini inobatga olishdir [1]. Ilmiy bilish va faoliyatni faqat parallel jarayon sifatida emas, balki dialektik birlikdagi, o'zaro ta'sirdagi ontologik va gnoseologik tizim sifatida talqin etish – bu fanning yangi postnoklassik paradigmasini ifodalaydi. Bunda bilish – haqiqatni passiv aks ettirish emas, balki ongli ravishda qayta qurish jarayoni bo'lib, u faoliyat orqali amalga oshadi. Shu bilan birga, faoliyatning o'zi ham fanning amaliy qo'llanilishi emas, balki borliqni o'zgartirishga qaratilgan ontologik kuch sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu ikki jarayon o'zaro bog'liq va bir-birini belgilab, fanni ham nazariy, ham amaliy-ijtimoiy hodisa sifatida anglashga zamin yaratadi.

Postnoklassik fan bosqichida ilm-fan an'anaviy obyektivlik va haqiqatga bo'lgan yondashuvlarini qayta ko'rib chiqadi. Bu yondashuvda bilim subyektivlik, jarayon va ijtimoiy-madaniy omillar bilan chambarchas bog'liqligini aks ettiradi. Endi haqiqat biror obyektiv reallikning soddagina aks ettiruvchi in'ikosi emas, balki ilmiy faoliyatda paydo bo'ladigan, muayyan tamoyillar va maqsadlar asosida quriladigan tushunchadir. "Agar haqiqat ilm-fan rivojida muhim rol o'ynasa, u holda uni reallikka muvofiqlik sifatida tushunib bo'lmaydi. Men ilm-fan etib bora olmaydigan qandaydir reallik mavjud deb hisoblamayman. Aksincha, "reallik" tushunchasining o'zi ilm-falsafada ma'nosizdek tuyuladi. Bu nuqtada mening pozitsiyam kuchli dasturga yaqin: faktlar xulosalardan

avval paydo bo'lmaydi va xulosalar haqiqatga da'vo qila olmaydi. Ammo men bu fikrga olimlar amaliyotidan emas, balki rivojlanishni boshqaruvchi umumiy tamoyillardan kelib chiqib kelaman. Ilm-fanda hokimiyat va manfaat muhim rol o'ynaydi, lekin ular bilan cheklanib bo'lmaydi — boshqa muhim omillar ham mavjud" [2]. Darhaqiqat, Tomas Kunning bu fikrlari postnoklassik fan falsafasining asosiy g'oyalarini aks ettiradi. Muallif haqiqatni obyektiv realikka moslik emas, balki bilimlar qurilishi jarayonida yuzaga keladigan, dinamik va sharoitdan kelib chiqadigan hodisa sifatida ko'radi. Bu yondashuv Tomas Kun, Pol Feyerabend kabi olimlarning epistemologik relativizmga yaqin qarashlariga mos keladi. Muallif "kuchli dastur" pozitsiyasiga yaqin turib, faktlar va xulosalarning qat'iy tartibda emas, balki o'zaro bog'liqlikda shakllanishini ta'kidlaydi. Bu esa ilmiy bilimni ijtimoiy hodisa sifatida tushunishga olib keladi, ya'ni ilmiy haqiqat jamiyat, manfaatlar va rivojlanish tamoyillari bilan bog'liq holda shakllanadi. Shu bilan birga, u hokimiyat va manfaatni hamma narsani aniqlovchi yagona omil deb bilmaydi, bu esa uning pozitsiyasini mutlaq relativizmdan saqlab qoladi. Umuman olganda, bu pozitsiya ilmiy haqiqatga ko'p qatlamli va ko'p darajali yondashuvni taklif etadi – unda nafaqat empirik dalillar, balki ijtimoiy, madaniy va tarixiy kontekstlar ham muhim o'rin egallaydi.

Shuningdek, Tomas Kun o'zining mashhur "Ilmiy inqiloblarning tuzilishi" asarida ilm-fanning rivojlanishini uzluksiz, chiziqli jarayon emas, balki inqilobiy o'zgarishlar orqali ro'y beradigan bosqichma-bosqich jarayon sifatida tasvirlaydi. Uning fikriga ko'ra, har bir tarixiy davrda muayyan "paradigma" hukmron bo'ladi va bu paradigma doirasida haqiqat qanday aniqlanishi belgilab qo'yiladi. Paradigma o'zgarganida esa haqiqat mezonlari ham o'zgaradi – demak, haqiqat ham tarixiy, ham ijtimoiy shart-sharoitga bog'liq [3]. Tomas Kun ilm-fanning rivojlanishini doimiy va barqaror taraqqiyot emas, balki keskin o'zgarishlar – ilmiy inqiloblar orqali yuzaga keladigan bosqichma-bosqich jarayon sifatida ko'radi. Paradigma tushunchasi orqali u ilmiy hamjamiyat tomonidan qabul qilingan nazariyalar, metodlar va asosiy qadriyatlarning to'plamini bildiradi. Har bir paradigma doirasida haqiqatning shakllanishi va tan olinishi me'yorlari aniq belgilanadi, ya'ni ilmiy haqiqat paradigmaning kontekstida tushuniladi. Paradigma o'zgarganida (masalan, yangi ilmiy inqilob paydo bo'lganda) haqiqat mezonlari ham tubdan o'zgaradi, bu esa haqiqatning obyektiv va o'zgarmas tushunchasini shubha ostiga oladi. Shunday qilib, Kunning nazariyasi ilmiy bilimning ijtimoiy va tarixiy sharoitlar bilan chambarchas bog'liqligini ko'rsatib, haqiqat tushunchasining dinamik va ko'p qirrali ekanligini ta'kidlaydi.

S.A.Lebedov ham T.Kunning qarashlarini postnoklassik fan bosqichida ilm-fanni ko'p qirrali rivojiga ham xizmat qilishini ta'kidlab, quyidagi fikrlarni bildirgan: "Ilmiy bilim va uning usullari plyurallik (ko'p qirrali) tuzilishga ega bo'lgani sababli, ilmda yagona universal haqiqat mezon mavjud bo'lishi mumkin emas. Ilmiy bilishning turli sohalar, darajalari, turlari va birliklari uchun haqiqatning o'ziga xos mezonlari mavjud bo'lib, ular ularning mazmuni, shakli va ilmiy bilimlar tizimidagi funksiyalarining o'ziga xos xususiyatlari bilan belgilanadi" [4]. Epistemologik plyuralizm ilmiy bilimlarning yagona metodologik asosga ega emasligini, balki turli ilmiy sohalar va vaziyatlarga ko'ra har xil usullar, tushunchalar va haqiqat mezonlariga ega ekanligini ta'kidlaydi. Bu yondashuvda bilim nafaqat obyektiv haqiqatni aks ettirish, balki faoliyat jarayonida shakllanadigan, kontekstga va maqsadlarga bog'liq bo'lgan dinamik tushuncha sifatida qaraladi. Masalan, fizikaga oid bilimlar uchun eksperiment va matematik modellashirish asos bo'ladi, sotsiologiyada esa jamiyat interpretatsiya va kontekstual tahlil asosida baholanadi. Bu ikki faoliyat shakli va bilim turi tubdan farq qilgani uchun haqiqatning talqini ham farq qiladi.

"Nazariyaning empirik talqini – bu nazariyani obyektiv haqiqatni tasvirlashda qo'llash mumkin bo'lgan sohalaridan biridir. Aslida, har qanday nazariyani turli haqiqat sohalariga tatbiq etish mumkin. Biroq, har qanday fakt turli nazariyalar, jumladan, bir-biriga alternativ bo'lgan nazariyalar nuqtai nazaridan ham izohlanishi mumkin. Nazariya va tajriba o'rtasida ikki yo'nalishda ko'p ma'noli (ko'p variantli) moslik munosabati mavjud" [5]. Shunday qilib, haqiqat nafaqat ko'p qirrali, balki funksional xarakterga ham ega bo'lib, har doim muayyan ilmiy tizim va faoliyat doirasida muayyan maqsadni amalga oshirish uchun yaratiladi. Bu esa ilmiy bilimning kontekstga, faoliyatga va ijtimoiy ehtiyojlarga bog'liqligini, uning doimiy o'zgaruvchan va taraqqiyotga moslashuvchan ekanligini ko'rsatadi.

"Postnoklassik fanda bir butunlik paradigmasi tan olinadi: olam, biosfera, noosfera, jamiyat, insonlar yagona yaxlit tizimni tashkil qiladi. Bu yaxlitlikning namoyon bo'lishida insonning o'rganilayotgan obyektidan tashqarida emas, balki uning ichida yaxlitlikning bir qismi bo'lib ko'rinishi yotadi va bunday yondashuvning oqibati sifatida tabiiy hamda ijtimoiy fanlarning yaqinlashuvini

FALSAFA

ko'ramiz, bunda hozirgi zamon tabiatshunosligining g'oyalari, tamoyillari gumanitar fanlarga keng qamrovli tatbiq etiladi, ba'zan buning aksi ham kuzatiladi. Fan tomonidan o'z-o'zidan rivojlanuvchi tizimlar egallanishi tabiatshunoslik va ijtimoiy bilim o'rtasidagi katta to'siqni bartaraf qiladi" [6]. Postnoklassik fan olam, biosfera, jamiyat va insonni yagona, o'zaro bog'langan tizim sifatida yangi bilimlar majmui shakllanishiga xizmat qilmoqda. Bu yondashuvda inson o'rganilayotgan predmetdan ajralmagan, balki uning bir qismi sifatida tushuniladi. Natijada, tabiiy va ijtimoiy fanlar bir-biriga yaqinlashadi, tabiatshunoslik g'oyalari va tamoyillari gumanitar fanlarga keng tatbiq etiladi, ba'zida esa aksincha holat yuz beradi. Shu bilan birga, o'z-o'zini rivojlantiruvchi tizimlarni o'rganish tabiiy va ijtimoiy bilimlar orasidagi bo'linishni kamaytiradi va ularning integratsiyasiga imkon yaratadi.

"Ilmiy bilimni asoslash jarayonida cheksiz regress holatini cheklovchi omillardan yana biri — bu olimlar tomonidan ko'plab ilmiy konvensiyalarni haqiqatga teng bo'lgan, ammo kelishuv xarakteriga ega bo'lgan mulohazalar sifatida qabul qilishidir. Bunday konvensiyalar ilmiy hamjamiyatning jamoaviy irodasi asosida qabul qilinadi. Ular mazmunan turlicha bo'lishi mumkin, ammo ular quyidagi holatlarda eng ko'p qo'llaniladi: fan tushunchalari va asosiy tamoyillarning ma'nosi va mazmunini aniqlashda; o'lchov birliklari, etalonlar va o'lchov tizimlarini belgilashda; muayyan hisoblash tizimlarini tanlash va belgilashda; koordinatalar tizimini qabul qilishda; mantiqiy xulosa chiqarish qoidalarini tanlashda; bilimni tashkil etish usullarini belgilashda; ilmiy bilishning ideallari va normalarini shakllantirishda; ilmiy bilimning mezonlarini, uning asoslanganlik, haqiqatlik kabi xususiyatlarini belgilashda va hokazo" [7]. Ilmiy bilish jarayoni endilikda universal haqiqatni izlashdan ko'ra, konkret reallikda, muayyan sharoitda shakllanuvchi ma'nolar tizimi sifatida qaraladi. Bu esa fanning subyekt-obyekt munosabatlarini qayta ko'rib chiqishga, bilishni amaliyot bilan chuqur bog'lashga va fanning ijtimoiy mas'uliyatini anglashga olib keladi. Shu tariqa, postnoklassik fan paradigmasida bilish jarayoni insonning faol ongi, ma'naviy pozitsiyasi va madaniy-institutsional muhiti bilan chambarchas bog'langan jarayon sifatida talqin etiladi. Bu esa bilishni nafaqat predmetga qaratish, balki uni shakllantirish, qayta yaratish, qayta qurish jarayoni sifatida anglashni talab etadi. Bunda bilishning mantiqiy tuzilishi, subyekt va obyekt o'rtasidagi chegaralarning nisbiyligi, bilish jarayonida mantiqiy ketma-ketligi va dunyo manzarasining dinamikligiga alohida e'tibor qaratiladi.

Postnoklassik fan uchun xos bo'lgan xususiyat — bilish subyekting fan jarayonidagi markaziy rolini tan olish, subyekt va obyekt o'rtasidagi chegaralarni nisbiylashtirish va fanning ijtimoiy, ma'naviy, amaliy jihatlarini inobatga olishdir [8]. Ilmiy bilish va faoliyatni faqat parallel jarayon sifatida emas, balki dialektik birlikdagi, o'zaro ta'sirdagi ontologik va gnoseologik tizim sifatida talqin etish — bu fanning yangi postnoklassik paradigmasini ifodalaydi. Bunda bilish — haqiqatni passiv aks ettirish emas, balki ongli ravishda qayta qurish jarayoni bo'lib, u faoliyat orqali amalga oshadi. Shu bilan birga, faoliyatning o'zi ham fanning amaliy qo'llanilishi emas, balki borliqni o'zgartirishga qaratilgan ontologik kuch sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu ikki jarayon o'zaro bog'liq va bir-birini belgilab, fanni ham nazariy, ham amaliy-ijtimoiy hodisa sifatida anglashga zamin yaratadi.

Postnoklassik falsafa fanni o'z-o'zini tanqid qiladigan tizim sifatida ko'radi. Bunda bilish subyekti mutlaq haqiqatni kashf etuvchi emas, balki reallikni qayta tuzuvchi ijodiy subyekt sifatida namoyon bo'ladi. Ilmiy bilish doimo muayyan madaniy, ijtimoiy va amaliy kontekstda shakllanadi [9]. Postnoklassik fanning metodologik asoslari, xususan, bilishning intersub'yektiv xususiyati, faoliyatning konstruktivligi, bilish mantig'ining dinamikligi — falsafiy bilish sohasidagi yangi paradigmani shakllantirmoqda. Bu esa ontologiya va gnoseologiya sohalarida yangi ilmiy asoslar, chuqur tahlil va nazariy modellarni ishlab chiqish uchun mustahkam ilmiy maydon yaratadi.

"Bilish jarayonida subyekting faolligi, intersub'yektiv munosabatlarning ahamiyati va fanning dinamik tabiati ilmiy bilishning universal emasligini, balki maqsadga yo'naltirilganligini ko'rsatadi. Bunda sub'yektivlik — ilmiy bilishning kamchiligi emas, balki uning mohiyatidir" [10]. Ilmiy bilimning faoliyat bilan bog'liq jihatlarining tadqiq etilishi o'z ichiga insonning faoliyati bilan bog'liq amalga oshirilgan barcha ilmiy tadqiqotlarni, qolaversa ilmiy tadqiqot faoliyatiga o'z ta'sirini o'tkazishi mumkin bo'lgan barcha ijtimoiy munosabatlar tahlilini ham qamrab olishi kerak. Bir necha omillar birgalikda ushbu masalalarning zamonaviy fan falsafasida dolzarb ahamiyat kasb etishiga sabab bo'ldi, deyish mumkin. Bu omillar qatoriga zamonaviy ilm-fanning jamiyatimizdagi hukmron mavqeyini tanqid ostiga oluvchi ijtimoiy harakatlar bo'lmish invayronmentalizm va feminizmni, ilmiy kashfiyotlarning ijtimoiy oqibatlari ustidagi xavotirlarni, katta fan tomonidan ilgari surilayotgan

epistemologik masalalarni, fan tarixidagi yangi tendensiyalarni, xususan, internalistik tarixnavislikdan chekinish holatlarini, fan soʻsiologiyasidagi anormativ yondashuvlarni keltirish mumkin va bularning barchasi falsafada yana naturalizm va pragmatizmga qaytish hollarini yuzaga keltirmoqda.

Faoliyatga oid falsafiy tadqiqotlar ikki guruhga boʻlingan holda olib borilishi samarali natijalarga sabab boʻlganligi bilan ahamiyatlidir. Ulardan biri ilmiy tadqiqotlar ijtimoiy muhitda olib borilishini tan oladi va bu xususiyatni hisobga olish uchun standart epistemologiyani qanday va qanchalik toʻldirish kerakligini savol sifatida qoʻyadi. Ikkinchisi esa, ijtimoiylikni bilimning asosiy jihati sifatida koʻradi va bu ijtimoiy nuqtai nazardan standart epistemologiyani qanday oʻzgartirish yoki qayta shakllantirish kerakligini oʻrganadi. Toʻldirish yondashuvidagi masalalarga koʻp mualliflik sababli yuzaga keladigan ishonch va javobgarlik, kognitiv mehnat taqsimoti, ilmiy ishlanmalar ijtimoiy hayotda qanday oʻrin tutishi, xususiy moliyalashtirilgan ilm-fan muammolari va ilmiy tadqiqotlarning jamiyatdagi roli kabilar kiradi. Masalan, Xelen Longino standart epistemologiyani ijtimoiy nuqtai nazardan qayta oʻylab chiqish zarurligini ilgari surar ekan, shunday yozadi: “Obyektivlik – ijtimoiy qadriyatlardan xoli boʻlish emas, balki ilm-fan hamjamiyatlarida bu qadriyatlarni boshqarish masalasidir” [11]. Bu qarashga koʻra, ilmning xolisligi – ijtimoiy taʼsirlardan butunlay xoli boʻlish emas, balki turlicha joylashgan subyektlar oʻrtasida tanqidiy muloqot va normativ jarayonlar orqali shakllanadi.

XULOSA

Postnoklassik tafakkur davrida bilish va faoliyat oʻrtasidagi dialektik munosabatni falsafiy asosda tahlil qilish zamonaviy ilmiy tafakkurning eng muhim vazifalaridan biriga aylangan. Bilim endilikda faqat obyektiv haqiqatni aks ettiruvchi vosita emas, balki inson faoliyatining mazmuni va yoʻnalishini belgilovchi, ijtimoiy hayotning turli sohalariga taʼsir koʻrsatuvchi kuch sifatida namoyon boʻlmoqda. Faoliyat esa insonning borliqqa boʻlgan amaliy munosabati, oʻzini anglash va oʻzgarishga intilishining uzviy ifodasi boʻlib, bilim bilan oʻzaro chambarchas bogʻliq holda rivojlanadi. Postnoklassik yondashuv bu ikki tushuncha – bilim va faoliyatni – statik emas, balki jarayonli, dinamik, tizimli va oʻzgaruvchan hodisalar sifatida talqin qiladi. Insoniyat taraqqiyotining yangi bosqichida bu jarayonlar orasidagi uzviy aloqa ilmiy izlanishlar, ijtimoiy amaliyot va texnologik innovatsiyalarni harakatga keltiruvchi asosiy omillardan biri sifatida qaralmoqda. Shuningdek, bu yondashuvlar orqali zamonaviy jamiyatda murakkablik, noaniqlik va koʻp omillilik sharoitida qarorlar qabul qilish, axborot bilan ishlash, yangilik yaratish kabi jihatlar ham yangicha falsafiy-metodologik koʻrinishda namoyon boʻlmoqda. Shu sababli, bugungi kunda bu dialektik munosabatni chuqur oʻrganish nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ham ega boʻlib, u fan, texnologiya va ijtimoiy institutlar rivojida muhim rol oʻynaydi. Xulosa qilib aytganda, postnoklassik ilmiy tafakkur doirasida bilim va faoliyatning dialektik uygʻunligi inson va jamiyat rivojini chuqurroq anglash, harakatlantiruvchi falsafiy asoslar yaratish va istiqbolli metodologik yondashuvlarni ishlab chiqishda muhim epistemologik zamin boʻlib xizmat qiladi. Bu esa fanning zamonaviy vazifalari va yoʻnalishlarini belgilashda hal qiluvchi rol oʻynaydi.

ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Grinbaum A., & Paty M. Physics and metaphysics // Studies in History and Philosophy of Modern Physics. United Kingdom, 2003. – № 34(2). – P. 218. [https://doi.org/10.1016/S1355-2198\(03\)00007-6](https://doi.org/10.1016/S1355-2198(03)00007-6)
2. Кун Томас После «Структуры научных революций» / Томас Кун; пер. с англ. А.Л. Никифорова — Москва: АСТ, 2014. – С. 162.
3. Thomas. S. Kuhn The Structure of Scientific Revolutions: 50th Anniversary Edition. – University of Chicago Press, 2012. – P – 264.
4. Лебедев С.А. Консенсуальная природа научных истин. Известия РАО, 2018, № 2, с. 5–17.
5. Лебедев С.А., Авдулов А.Н., Борзенков В.Г., Лазарев Ф.В., Лесков Л.В., Мирский Э.М., Юдин Б.Г. Основы философии науки. Москва, Академический проект, 2005. – 544 с
6. Shermuhamedova N.A. Falsafa va fan metodologiyasi. Darslik. – T.: PUBLISHING HIGH FUTURE, 2024. – B. 81.
7. Лебедев С.А. Классическая, неклассическая и постнеклассическая методологии науки. Гуманитарный вестник. № 2-2019
<file:///C:/Users/%D0%90%D0%B4%D0%BC%D0%B8%D0%BD%D0%B8%D1%81%D1%82%D1%80%D0%B0%D1%82%D0%BE%D1%80/Downloads/klassicheskaya-neklassicheskaya-i-postneklassicheskaya-metodologii-nauki.pdf>
8. Grinbaum A., & Paty M. Physics and metaphysics // Studies in History and Philosophy of Modern Physics. United Kingdom, 2003. – № 34(2). – P. 218. [https://doi.org/10.1016/S1355-2198\(03\)00007-6](https://doi.org/10.1016/S1355-2198(03)00007-6)
9. Kline S.J. Conceptual foundations for multidisciplinary thinking. – USA: Stanford University Press, 1995. – P. 197.
10. Latour B. Pandora's hope: Essays on the reality of science studies. – London: Harvard University Press, 1999. – P. 145.
11. Longino H.E. The Fate of Knowledge. – USA: Princeton University Press, 2001. – P. 50. (233)